



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI

**Pishaddinova Shaxnoza Baxitbay qizi**

*Nukus DPI Boshlang'ich ta'lif fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** Zamonaliviy ta'lif sohasiga kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalar pedagoglarimizga ana shunday vazifalarni amalga oshirishda asosiy omilga aylanib bormoqda. O'qituvchilarimiz ushbu metodlarni o'z faoliyatlariga tadbiq etmoqdalar, usullar va metodlar ustida izlanish olib bormoqdalar.

**Kalit so'zlar:** pedagog, boshlang'ich ta'lif, metodika, usul.

Bugun zamon talabi, ertaga bajarilishi kerak bo'lgan dolzarb vazifalar xalq ta'limi tizimini tubdan isloq qilish zarurligi taqazo etayotganini ko'rsatdi. Davlatimiz rahbari uzlucksiz ta'limi tashkil etishda uning jahon talablari darajasida bo'lishi hamda uning yuksak ma'naviyat zaminida qurilishiga katta ahamiyat berish kerakligini ta'kidlar ekan, Davlat ta'lif standartlarini joriy etish va uning mexanizmini ishlab chiqish naqadar muhimligiga e'tiborni qaratdi.

Bu talablardan kelib chiqib yoshlarimizning tegishli ixtisosliklar bo'yicha chuqurlashtirilgan bilimlarga ega bo'lishi, mustaqil va ijodiy fikrlash salohiyatiga ega bo'lgan shaxs darajasiga ko'tarilishlari, o'z fikrlarini izchil tarzda yozma va og'zaki bayon eta olishlari, bilimlarini muntazam yangilab, oshirib borishlari, mustaqil va ijodiy fikrlay olishlari, o'z millatini va Vatanlarini sevishlari, milliy qadriyatlarni, hurmat qilishlarini taqazo etadi.

Bu albatta, birinchi galda xalq ta'liming poydevori bo'lmish boshlang'ich sinflarga bevosita taalluqlidir. Bola ilm-fan asoslarini, savodxonlikni shu bosqichda o'rghanadi.

Ona tili ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, ularda erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrini anglash, o'z fikrlarini ravon bayon qila olishga, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqatda bo'la olishga va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. O'z ona tini bilmagan odam o'zining shajarasini, o'zining ildizini bilmaydigan, kelajagi yo'q odam.

Bu o'rinda ona tili ta'limga o'quv fani emas balki, butun ta'lif tizimini uyushtiruvchi ta'lif jarayoni fe'lida qaraladi. Ona tili ta'lif standarti ko'rsatgichlari bolani fikrlay olishga, ifodalangan fikrni anglashga va o'z fikrini savodli, mantiqiy izchilikka rioya qilgan holda bayon qila olishga o'rgatish nuqtai nazaridan



# ANALYSIS OF INTERNATIONAL SCIENCES

## International scientific journal

Volume: 2 Issue: 2



belgilanadi. Har bir avlod oldida insoniyat yaratgan jamiki boyliklarni, bilimlarni o’rganish, o’zlashtirish va rivojlantirish vazifasi turadi. Hayot taraqqiyoti va jamiyat rivojini shusiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Bu vazifani amalga oshirishning birdan-bir yo’li ta’lim tizimini tinmay takomillashtirib borish orqali yosh avlodni ilm-fan asoslari bilan chuqur qurollantirishdir.

O`quvchilarni mustaqil bilim olishga tayyorlash ishlari boshlang`ich sinflardan boshlanadi. Shuning uchun ham dasturlarda bu masalaga alohida e`tibor berilgan.

Maktabda dars o’quv-tarbiya jarayonini tashkil qilishning asosiy shakli hisoblanadi. Shunday ekan, ona tili o’qitishning samaraliligi darsning sifatiga bevosita bog’liq.

Darsga qo’yilgan umumdidaktik talablar pedagogik adabiyotlarda keng yoritilgan. Ularni ona tili o’rgatishga tadbiq qilib, metodik aniqliklar kiritilsa, ona tili darslariga qo’yilgan talablar quyidagicha bo’ladi:

I. Yangi bilim berish, ularni nutq praktikasiga tatbiq etish va o’quvchilarni tarbiyalash bir butun jarayondir. Darsda o’quvchilarning o’quv faoliyatini tashkil etishga, foydalaniladigan til materialining g’oyaviy-siyosiy, estetik va badiiy qimmatli bo’lishiga, tilni o’rganish jarayonida bolalarda dunyoqarash elementlarini shakllantirishga alohida ahamiyat berish zarur. Ijodiy izlanish muhiti yaratilgan darslarigina zarur axlohiy sifatlar tarbiyalanadi.

Ona tili darslarida o’zbek tiliga muhabbat va so’zga ehtiyyotlik bilan munosabatni tarbiyalashga alohida e`tibor beriladi. Buning uchun matn puxta tanlanadi. Tilni o’rganish jarayonida leksik-stilistik ishlarga katta, o’rin beriladi. Darsda she`r, soddalashtirilgan matnlar bilan birga, yuksak badiiy matnlardan ham foydalaniladi.

Ona tili o’qitish jarayoni o’quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishga qaratiladi. Ona tili darslari har bir kishi uchun zarur bo’lgan saranjom-sarishtalik, mustaqillik, tashabbuskorlik sifatlarini ham tarbiyalaydi1.

Darsning aniqligi va ichki mantiqiyligi, uning maqsadga yo’naltirilganligi yangi material o’rgatiladigan darsning logikasi o’rganiladigan til hodisasi va uning lingvistik mohiyatining bir-biriga ta’sir qilishiga ma`lum darajada sabab bo’ldi. O’qituvchi bu o’zaro bog’lanishni bilishi va uni o’quvchilar bilan birga topshiriqlarni bajarish davomida asta ocha borishi muhimdir.



# ANALYSIS OF INTERNATIONAL SCIENCES

## International scientific journal

Volume: 2 Issue: 2



Agar dars grammatik bilimlarni mustahkamlash, orfografik ko'nikmalarni shakllantirish maqsadini o'z oldiga qo'ysa, darsning mantiqiy shartlari asta murakkablashtirib borilgan mashqlar tizimini aks ettiradi. Bolalar biror imlo qoidasini yaxshilab bilib, o'rganib olishlari uchun bir-ikki mashq kollektiv ravishda bajariladi. O'quvchilar mustaqilligi oshgach, mashqni mustaqil ishlaydilar. Darsda bajarilgan mashqlar o'rtasidagi bog'lanishni shakllantiradigan ko'nikmaning xususiyati ham sabab bo'ladi. O'quv materialining mavzuga va darsning maqsadiga mos bo'lishi uning maqsadga yunaltirilishini ta'minlaydi. Darsda foydalaniladigan barcha o'quv materiallari (shu jumladan, til faktlarini kuzatish, imlo va nutqqa oid mashqlarnn bajarish uchun tanlanadigai materiallar ham) darsning maqsadiga juda mos bo'lishi zarur.

III. Ona tili darsi, avvalo, o'quvchilar nutq va tafakkurini o'stirish darsidir. Ona tili darslari ijtimoiy-foydali bo'lishi uchun o'quvchilarda o'z fikrini grammatik to'g'ri, uslubiy aniq, izchil ifodalash va boshqalar fikrini bera olish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilishi lozim. Ona tili darslarida nutq o'stirish ko'rsatmasi grammatik materialni o'rgatishda o'quvchilar tilimizdagi har bir so'z turkumi yoki so'z qismining rolini bilib olishlariga erishtiradigan metodik usullarni qo'llashni talab etadi, ya'ni grammatik nazariya grammatik to'g'ri va aniq nutq malakalarini shakllantirishga, anglab, tushunib yozish malakalarini o'stirishga amalda tadbiq etish uchun o'rgatiladi. Darsda bolalar nutqini o'stirish darsning mazmunida va darsda qo'llannilgan vazifalar turlarida o'z aksini topadi.

Grammatik, so'z yasalishiga oid, orfografik materiallarni o'rganishni nutq o'stirish bilan bog'lash o'quvchilar aqliy faoliyatini boshqarish hisoblanadi. Bolalar nutqini o'stirish jarayoni ularning tafakkurini, o'stirish bilan bog'liq.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Taubaevich, K. Z., & Abdigaziyevna, T. T. (2022). The Role Of William Shakespeare's Work In The Development Of European Literature. Journal of Positive School Psychology, 6(8), 299-304.
2. Taubaevich, K. Z., Kondybaevna, A. B., Ramazanovna, E. A., Karymsakova, B. A., & Atabaevna, K. A. (2022). Psychologism In Modern Prose. Journal of Positive School Psychology, 3682-3685.



**ANALYSIS OF INTERNATIONAL SCIENCES**  
**International scientific journal**

**Volume: 2 Issue: 2**



3. Mustafayev, S., & Kadyrov, K. A. (2022). The Educational Potential of Art and Its Realization in the Context of Globalization. International Journal on Integrated Education, 5(6), 218-222.
4. Khidayevich, D. B. (2021). INNOVATIVE APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF SPIRITUAL EDUCATION. PHILOSOPHY AND LIFE INTERNATIONAL JOURNAL, (4 (15)).
5. Kurbaniyazova, Z. K. (2021). The role of social pedagogy in the professional training of future teachers. World Bulletin of Social Sciences, 4(11), 23-26.
6. Мусурмонова, О., & Курбаниязова, З. К. (2018). Инновационные образовательные технологии и педагогическая компетентность.
7. Kurbaniyazova, Z. K. (2021). The role of social pedagogy in the professional training of future teachers. World Bulletin of Social Sciences, 4(11), 23-26.
8. Kurbaniyazova, Z. K. (2021). The role of social pedagogy in the professional training of future teachers. World Bulletin of Social Sciences, 4(11), 23-26.
9. Kurbaniyazova, Z. (2021). PREPARATION OF FUTURE TEACHERS FOR SOCIAL AND PEDAGOGICAL ACTIVITIES. Central Asian Problems of Modern Science and Education, 2021(3), 92-105.
10. Shinnazarova, S. J., & Mambetova, G. J. (2020). PARONIMIA IN THE KARAKALPAK LANGUAGE. Theoretical & Applied Science, (3), 67-70.
11. Saodat, S. (2023). Study of Somatic Phraseological Units in Karakalpak Language.